BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg
BG PULSE JOURNAL

YANGILANGAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQ TIZIMINI O‘RGANISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Musayev Hamzahon Zokirjon o‘g‘li
Namangan universiteti
Yuridik fakulteti
3-bosqich talabasi
Email:hamzahonmusayev@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangilangan O‘zbekiston sharoitida huquqiy tizimni tadqiq etish va o‘rganishning zamonaviy uslublari, ularning maqsadi, qo‘llanilish sohalari hamda amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Konstitutsiyaviy islohotlar, raqamlashtirish (Smart-huquq) va inson huquqlariga yo‘naltirilgan yondashuvlarning huquqiy ta’lim va amaliyotdagi o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Huquq tizimi, huquqiy tizim, Yangi O‘zbekiston, konstitutsiyaviy islohotlar, qonun ustuvorligi, raqamlashtirish, Smart-huquq, elektron hukumat, huquqiy ta’lim, interaktiv yondashuvlar, qiyosiy-huquqiy tahlil, huquqiy madaniyat, inson huquqlari, innovatsion texnologiyalar, huquqiy islohotlar.

Аннотация:В данной статье анализируются современные подходы к исследованию и изучению правовой системы в условиях Обновлённого Узбекистана, их цели, сферы применения и практические возможности. Особое внимание уделяется роли конституционных реформ, цифровизации (Smart Law) и ориентированных на права человека подходов в юридическом образовании и правоприменительной практике.

Ключевые слова:правовая система, система права, Новый Узбекистан, конституционные реформы, верховенство закона, цифровизация, Smart Law, электронное правительство, юридическое образование, интерактивные подходы, сравнительно-правовой анализ, правовая культура, права человека, инновационные технологии, правовые реформы.

Annotation: This article examines modern approaches to researching and studying the legal system in the context of the Renewed Uzbekistan, including their objectives, areas of application, and practical significance. Particular attention is paid to the role of constitutional reforms, digitalization (Smart Law), and human rights-oriented approaches in legal education and legal practice.

Keywords:legal system, system of law, New Uzbekistan, constitutional reforms, rule of law, digitalization, Smart Law, e-government, legal education, interactive approaches, comparative legal analysis, legal culture, human rights, innovative technologies, legal reforms.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini, xususan, huquqiy tizimni ham tubdan yangiladi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi huquqshunoslik fani va amaliyoti oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo‘ydi. Endilikda huquq tizimini shunchaki qonunlar majmuasi sifatida emas, balki dinamik rivojlanayotgan, inson manfaatlariga xizmat qiluvchi jonli mexanizm sifatida o‘rganish talab etilmoqda.

Bu esa huquqni o‘rganishda an’anaviy (shakliy-yuridik) metodlardan voz kechmagan holda, zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni joriy etishni taqozo qiladi.

Birinchi o‘rinda huquq tizimi va huquqiy tizim nimaligini va qanday farqlarini o’rganib olishimiz kerak.

Huquq tizimi – bu ijtimoiy munosabatlarning xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan huquqning ichki tuzilishi bo‘lib, u huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining qat’iy ilmiy izchillikda joylashgan tartibidir.

Huquq tizimining quyidagi xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- huquq tizimi muayyan jamiyatda amalda bo‘lgan huquqning ob’ektiv sifatidir, uni avvaldan belgilangan reja asosida barpo etish mumkin emas;
- huquq tizimi to‘laligicha huquq normalari bilan mustahkamlanadigan va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar tizimiga muvofiq keladi. Shu jihatdan olganda, huquq ijtimoiy hodisa sifatida nafaqat o‘zida, balki ichki tuzilishi orqali ham jamiyat xususiyatlarini ifoda etadi;
- huquq tizimi tarixiy o‘zgaruvchan, u jamiyat taraqqiyoti bilan mutanosib ravishda tadrijiy jarayonlarni bosib o‘tadi;
- huquq tizimi tarkibiga kiruvchi o‘zaro aloqada bo‘lgan sohalar bir-birini takrorlamaydi va aksincha bir-birini to‘ldiradi;
- huquq tizimi ijtimoiy munosabatlar mazmuni bilan bog‘liq holda, ob’ektiv ravishda shakllanadi;
- huquq tizimi yaxlit tizim sifatida huquqning ichki tuzilishini, ya’ni bu tizim qanday ichki “qurilma”dan iboratligini ko‘rsatadi;
- huquq tizimi uni tashkil etuvchi yuridik normalarning muayyan guruhlarga birlashishini ko‘rsatadi;
- huquq tizimi huquq normalari va uning guruhlari o‘zaro farqlanishini ko‘rsatadi;
- huquq tizimi ijtimoiy munosabatlarning xususiyati va ularning o‘ziga xosligi huquq normalarining ham ma’lum darajada ixtisoslashuvini taqozo etadi[1].

Huquqiy tizim deganda muayyan davlat hududida amal qiladigan va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ob’ektiv huquq tushuniladi. Hozirgi kunda dunyoda 200 dan ortiq davlat mavjud bo‘lib, har biri o‘z huquqiy tizimiga ega[2].

“Huquqiy tizim” atamasi uch ma’noda qo‘llaniladi:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy ma’noda – huquqning ijtimoiy-iqtisodiy turini anglatadi.
2. Muayyan mamlakatning huquqiy tizimi ma’nosida.
3. Turli mamlakatlar huquqiy tizimlarining umumiyligi va birligi ma’nosida.

Huquqiy tizimlarning asosiy turlari

- Roman-german (kontinental) huquq oilasi;
- Umumiy (anglo-sakson) huquq oilasi;
- Skandinaviya mamlakatlari huquqiy tizimlari;
- Lotin Amerikasi mamlakatlari huquqiy tizimlari;
- Uzoq Sharq mamlakatlari huquqiy tizimlari;
- Diniy-an’anaviy huquq oilasi;
- Sotsialistik huquq oilasi;
- Aralash huquqiy tizimlar.

Huquq tizimi va huquqiy tizimni asosiy farqlarini qisqacha yoritadigan bo‘lsak:Huquqiy tizim har bir davlatning huquqiy tartibini ifodalaydi va uning tarixi, madaniyati hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

[1] Сайдуллаев Ш. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Дарслик. –Тошкент: ТДЮУ, 2018. – 148-149 бетлар .

[2] Одилқориев Х.Т., Якубов Ш.У. Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар: Монография. – Т.: SMI-ASIA, 2010. – Б. 27-30.

Huquq tizimi va huquqiy tizim tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular bir xil ma’noni anglatmaydi. Huquq tizimi huquqning ichki tuzilishini ifodalaydi.

U huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalarining o‘zaro bog‘liqligi hamda tartibli joylashuvidan iborat. Huquq tizimi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va xususiyatlariga qarab shakllanadi hamda huquqning ichki tarkibini aks ettiradi.

Huquqiy tizim esa mazmunan ancha keng tushuncha hisoblanadi.

U nafaqat huquq normalari va huquq sohalarini, balki davlatning butun huquqiy hayotini qamrab oladi. Huquqiy tizim tarkibiga amaldagi qonunchilik, huquqni qo‘llovchi davlat organlari, sud tizimi, huquqiy madaniyat, huquqiy ong, yuridik amaliyot va boshqa huquqiy hodisalar kiradi. Shu sababli huquqiy tizim muayyan davlatning huquqiy rivojlanish darajasini va o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Demak, huquq tizimi huquqning ichki tuzilishini anglatsa, huquqiy tizim davlatdagi barcha huquqiy vositalar, institutlar va jarayonlarning yig‘indisini anglatadi. Boshqacha aytganda, huquq tizimi huquqiy tizimning tarkibiy qismi bo‘lib, huquqiy tizim unga nisbatan kengroq va murakkabroq tushunchadir.

Huquq tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. **Jamiyatdagi tartibni ta’minlash:** Huquq tizimi jamiyat a’zolari o‘rtasida munosabatlarni tartibga soladi, nizolarni hal qilish yo‘llarini belgilaydi va jinoyatchilikning oldini olishga xizmat qiladi.
2. **Huquq va majburiyatlarni belgilash:** Har bir fuqaroning, tashkilotning va davlat organining huquq hamda majburiyatlarini aniq belgilab beradi.
3. **Adolatni ta’minlash:** Huquq tizimi yordamida jinoyatchilik, huquqbuzarlik holatlarini aniqlash va jazolash orqali adolatni barqaror saqlashga intiladi.

Huquq tizimining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- **Huquqiy me’yorlar:** Har qanday huquq tizimining asosiy elementi bo‘lib, ular yozma yoki og‘zaki shaklda bo‘lishi mumkin. Qonunlar, prezident qarorlari, hukumat farmoyishlari huquqiy me’yorlarga misol bo‘la oladi.
- **Huquqiy institutlar:** Ma’lum bir sohalarni tartibga soluvchi huquqiy normalar to‘plami. Masalan, oilaviy huquq instituti, mehnat huquqi instituti va boshqalar.
- **Huquqiy munosabatlar:** Huquqiy me’yorlarda belgilangan qoidalar asosida shakllangan ijtimoiy munosabatlar.
- **Huquqni qo‘llash organlari:** Sudlar, prokuratura, ichki ishlar organlari va boshqa davlat idoralari, ular huquqiy me’yorlar amalga oshishini nazorat qiladi.

Huquq tizimi turli davlatlarda tarixiy, ijtimoiy, madaniy omillarga qarab farq qiladi. Masalan, O‘zbekistonda huquq tizimi asosan kontinent (yoki civil) huquq tizimiga mansub bo‘lib, unda asosiy rol kodifikatsiyalangan qonunlarga beriladi[3].

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar huquq tizimini o‘rganishda ham zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni taqozo etmoqda. An’anaviy nazariy bilimlar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalar, interaktiv ta’lim usullari hamda raqamli platformalar huquqiy bilimlarni egallashning muhim vositasiga aylanmoqda.

Birinchidan, **interaktiv va amaliy yondashuvlar** huquq tizimini o‘rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv talabalarni faqat nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki huquqiy vaziyatlarni tahlil qilish, sud amaliyoti misollarini o‘rganish, munozara va debatlarda ishtirok etish orqali mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga

[3] https://uzpedia.uz/pedia/huquq_tizimi

xizmat qiladi. Keys-stadi (case study), moot court (model sud jarayonlari), rol o‘ynash va muammoli vaziyatlarni yechish metodlari huquqiy ta’lim samaradorligini oshirmoqda.

Ikkinchidan, **elektron hukumat va huquqiy tartibga solish tizimlari** huquqni o‘rganishning yangi imkoniyatlarini yaratmoqda. Davlat boshqaruvining raqamlashtirilishi natijasida normativ-huquqiy hujjatlar, sud qarorlari va davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonlari ochiq va shaffof tus olmoqda. Talabalar hamda tadqiqotchilar elektron ma’lumotlar bazalari orqali amaldagi qonunchilik bilan tezkor tanishish, huquqiy hujjatlarni tahlil qilish va amaliy tajribani o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar. Bu esa huquq tizimini real amaliyot bilan bog‘liq holda o‘rganishga yordam beradi.

Uchinchidan, **raqamli texnologiyalar va huquqiy ta’lim** zamonaviy huquqshunoslarni tayyorlashning muhim omiliga aylandi. Sun’iy intellekt, elektron kutubxonalar, onlayn ta’lim platformalari va masofaviy ta’lim texnologiyalari huquqiy bilimlarni egallash jarayonini yanada qulay va samarali qilmoqda. Raqamli vositalar yordamida talabalar xalqaro huquqiy manbalardan foydalanish, xorijiy tajribalarni o‘rganish hamda huquqiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

Shuningdek, huquq tizimini o‘rganishda **komparativ-huquqiy (qiyosiy) yondashuv** ham muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali O‘zbekiston huquq tizimi rivojlangan davlatlarning huquqiy tajribasi bilan taqqoslanadi, ilg‘or amaliyotlar o‘rganiladi va milliy qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi.

Har bir fan yoki sohaning o‘z tamoyillari, metodologiyasi va yangicha rivojlanayotgan paradigmalari bo‘ladi. Huquqiy ta’lim jarayonida ham o‘ziga xos pedagogik metodlardan samarali foydalanish, amaliyotdagi huquqiy ko‘nikmalar orqali sifatli ta’lim jarayonini tashkil etish shu yo‘nalishdagi pedagoglar, professor-o‘qituvchilardan alohida mas’uliyat talab qiladi[4].

Yangi O‘zbekistonda huquq tizimini o‘rganish interaktiv ta’lim metodlari, elektron hukumat tizimlari, raqamli texnologiyalar va qiyosiy-huquqiy tahlil kabi zamonaviy yondashuvlar asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuvlar huquqiy ta’lim sifatini oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish va malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash, global ishlab chiqarishning muhim bo‘g‘iniga aylangan kuchli iqtisodiyotni shakllantirish, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta’minlash maqsadida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan **“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi** ham huquq tizimini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi[5].

U faqatgina fuqarolar erkin va farovonligini ta’minlash emas balkim yuqorida aytilgandek qonun ustuvorligini ta’minlaydigan degan fikrlar yoritilgan shu asosiy qonun ustuvorligini ta’minlash prinsipini o‘zini huquq tizimi bilan bog’lasak ham bo’ladi. Chunki qonun ustuvorligi ta’minlasa huquq tizimi va undagi huquq normalari, huquq institutlari va huquq sohalari ham qonun ustuvorligi ichiga oladi va uni ta’minlash uchun yangichga fikrlash va g’oyalar o’ylab chiqladi va shu g’oyalarni va yondashuvlarni biz yuqorida ko’rib chiqdik.

---

[4] Sh.Toshpo‘Latov, D.Alaeva, Tdyuu O‘qituvchilari. “Yuridik ta’limda huquqiy ko‘nikmalarning ahamiyati” nomli maqolasidan. https://uza.uz/posts/281079

[5] O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida" PF-22-son Farmoni https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak: Yangi O‘zbekistonda huquq tizimini o‘rganish an’anaviy yuridik yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy innovatsion metodlar asosida rivojlanmoqda. Interaktiv ta’lim usullari, raqamli texnologiyalar, elektron hukumat tizimlari va qiyosiy-huquqiy tahlil huquqiy bilimlarni chuqur o‘zlashtirish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shuningdek, konstitutsiyaviy islohotlar va inson huquqlariga yo‘naltirilgan siyosat huquq tizimini yanada takomillashtirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda. Natijada ushbu yondashuvlar huquqiy madaniyatni yuksaltirish, qonun ustuvorligini ta’minlash va zamonaviy talablarga javob beradigan malakali huquqshunos kadrlarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "O‘zbekiston — 2030" strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida" PF-22-son Farmoni.
2. Saidullayev Sh. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik. – Toshkent: TDYUU, 2018. – B. 148–149.
3. Odilqoriyev X.T., Yakubov Sh.U. Milliy huquqiy tizim va huquqiy qadriyatlar: Monografiya. – T.: SMI-ASIA, 2010. – B. 27–30.
4. Toshpo‘latov Sh., Alayeva D. Yuridik ta’limda huquqiy ko‘nikmalarning ahamiyati // maqola. – URL: https://uza.uz/posts/281079
5. Huquq tizimi // UzPedia. – URL: https://uzpedia.uz/pedia/huquq_tizimi
6. O‘zbekiston — 2030 strategiyasi // Hukumat portali. – URL: https://gov.uz/oz/pages/2030_strategy